



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-may

111-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-maydagi “Hududlarda mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 308-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi “2025 yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-maydagi “Hududlarda mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 308-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-son qaroriga muvofiq 2025-2026 yillarda viloyatda mikrosanoat markazlarini (keyingi o‘rinlarda - Mikrosanoat markazlari) barpo etish loyihalarining manzilli ro‘yxati tasdiqlangani ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-maydagi “Hududlarda mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 308-sonli qarori bilan quyidagilar belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin:

Mikrosanoat markazlari hududlarning ixtisoslashuvi va tadbirkorlik an‘analarini (hududlarning drayveri), yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratishni, shuningdek, xorijiy davlatlar (Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya) tajribasi asosida qurish inobatga olingan holda ishlab chiqiladigan alohida konsepsiyaga muvofiq barpo etiladi;

Mikrosanoat markazlarida hunarmandchilik, tikuvchilik, poyabzalchilik, qandolatchilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlari bilan shug‘ullanadigan kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari (keyingi o‘rinlarda — tadbirkorlik subyektlari) joylashtiriladi;

Mikrosanoat markazlariga ishlab chiqarishlarni joylashtirishda tabiiy gazga muqobil bo'lgan yoqilg'i turlaridan va energiya tejamkor texnologiyalardan (geliokollektor, issiqlik nasosi, quyosh panellari, issiqlikni qayta tiklash-rekuperatsiya qilish va boshqalar) foydalanishga ustuvorlik beriladi;

Mikrosanoat markazlarining loyiha konsepsiyasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan loyiha tashkilotlarini jalb qilish orqali ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

Mikrosanoat markazlarini qurish uchun yer uchastkalari tasdiqlangan loyiha konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish bino va inshootlarini tayyor holda qurish va keyinchalik ularga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish uchun tashabbuskor pudrat tashkilotlariga elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotiladi;

elektron onlayn-auksion savdolari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori bilan tasdiqlangan 2025-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalarining manzilli ro'yxati asosida o'tkaziladi;

elektron onlayn-auksion savdolari g'olibi bo'lgan pudrat tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda tuman (shahar) hokimliklari o'rtasida Mikrosanoat markazlarini tasdiqlangan loyiha konsepsiyasi asosida qurish va ularga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish shartlari (ijaraga (lizingga) berish, kredit, to'liq yoki bo'lib-bo'lib to'lash orqali sotish) to'g'risida uch tomonlama bitim tuziladi;

Mikrosanoat markazlarida yaratiladigan ishlab chiqarish maydonlari tadbirkorlik subyektlariga pudrat tashkilotlari tomonidan uch tomonlama bitimda ko'rsatilgan shartlar asosida taklif etiladi;

Mikrosanoat markazlarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari, shu jumladan, mahalliy budjetlarga ushbu qarorga muvofiq yerlarni elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushgan mablag'lar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

4. Hududlarda mikrosanoat markazlarini barpo etish hamda ularga kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi (keyingi o'rinlarda - ishchi guruhi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ishchi guruhining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qaroriga muvofiq mikrosanoat markazlarini barpo etish uchun belgilangan hududlardan tuman (shahar) hokimliklari zaxirasidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh yer uchastkalarini (keyingi o'rinlarda — yer uchastkalari) tanlash;

Mikrosanoat markazlarini loyiha konsepsiyasi asosida qurish uchun tanlangan yer uchastkalarining belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilishini tashkil etish;

Mikrosanoat markazlari pudrat tashkilotlari tomonidan belgilangan muddatlarda qurilishi ustidan doimiy monitoring yuritish;

Mikrosanoat markazlariga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish va ularning faoliyatini tashkil etishda yordam ko'rsatish;

Mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalari doirasida yangi ish o'rinlari yaratilishini nazorat qilish.

5. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R. Sulaymonov), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (X. Pardayev), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L. Xayrullayev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

Mikrosanoat markazlariga tadbirkorlarni jalb qilish, ularning biznes-rejalari asosida yangi loyihalarni ishlab chiqish, loyihalarga tijorat banklari tomonidan kredit ajratish va loyihalarni amalga oshirishda ko'maklashish;

mahalla bankirlari orqali bank xizmatlarini targ'ib qilish, tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va yangi mijozlarni jalb qilish;

Mikrosanoat markazlarining ixtisoslashuvi va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, boshqa hududlardagi ijobiy tajribalarni ommalashtirish choralari ko'rsin.

6. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R. Sulaymonov), tuman (shahar) hokimliklari Mikrosanoat markazlarining loyiha konsepsiyasi tasdiqlanganidan so'ng:

manfaatdor korxona va tashkilotlar bilan birgalikda Mikrosanoat markazlarini loyiha konsepsiyasi asosida qurish uchun tanlangan yer uchastkalarining belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilishini ta'minlasin. Bunda elektron onlayn-auksion savdolari ishchi guruh xulosasiga asosan salohiyatli pudrat tashkilotlari o'rtasida yopiq shaklda o'tkazilishi mumkin.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi bilan birgalikda Mikrosanoat markazlarida bajariladigan qurilish-montaj ishlarining sifati ustidan davlat arxitektura-qurilish nazorati o'rnatilishini ta'minlasin.

7. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R. Sulaymonov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L. Xayrullayev) 2025-yil yakuniga qadar tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturlari doirasida mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalarini yana-da kengaytirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritisin.

8. Viloyat hokimining 2025-yil 03-apreldagi 53-5-0-F/25-sonli farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari - iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i R. Sulaymonov hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i L. Xayrullayev zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 20-maydagi
111-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Viloyatda mikrosanoat markazlarini barpo etish hamda ularga
kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish
bo'yicha ishchi guruh
TARKIBI**

T/R	F.I.Sh	Lavozimi
1	R.Sulaymonov	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i (<i>ishchi guruh rahbari</i>)
2	E.Kamolov	Qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (<i>ishchi guruh rahbari</i> <i>o'rinbosari</i>)
3	E.G'afforov	Viloyat hokimi o'rinbosari - Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i
4	L.Xayrullayev	Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i
5	Z.Botirov	Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish viloyat inspeksiya boshlig'i
6	X.Pardayev	Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i
7	N.Atajanov	Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i
8	D.Nishonov	Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i

9	A.Turdiyev	“Yagona buyurtmachi xizmati” DUK boshlig‘i
---	------------	--